

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA’LIMI
VAZIRLIGI
NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

Tarix fakulteti

**Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi
Kafedrası**

**“Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi” ta’lim
yo‘nalishi 4 kurs talabasi Bo‘riyev Oqilning**

**DINIY BAG‘RIKENGLIK VA MILLATLARARO
MUNOSABATLAR RIVOJI**

Mavzusida yozgan referati

Tekshirdi:_____

NAVOIY 2016

DINIY BAG'RIKENGLIK VA MILLATLARARO MUNOSABATLAR RIVOJI

Din milliy hayotning tabiiy yo'ldoshidir. Zero, u etnik birliklar a'zolari hayot tarzini tashkil etuvchi, tartibga soluvchi hamda kishilarning ijtimoiylashuviga xizmat kilduvchi me'yoriy omillardan biri bo'lib kelgan. Dinning bunday roli uning tarixan shakllangan o'ziga xos xususiyatlari bilan belgilanadi. Chunki, din, I. A. Karimov ta'kidlaganlaridek, birinchidan, umuminsoniy axloq me'yorlarini o'ziga singdirib olib, ularni hamma uchun majburiy xulq-atvor qoidalariga aylantirgan; ikkinchidan, odamlarning bahamjihat yashashiga ko'maklashgan; uchinchidan, odamlarda ishonch hissini mustahkamlagan hamda hayot sinovlari, muammo va qiyinchiliklarni yengib o'tishlarida kuch bag'ishlagan; to'rtinchidan, umuminsoniy ma'naviy qadriyatlarni saqlab qolish hamda avloddan-avlodga yetkazishga yordam bergan va shu yo'l bilan madaniyat rivojiga katga ta'sir ko'rsatgan¹.

Din etnoslarning shakllanish jarayonida ham muhim rol o'ynagan. Masalan, pravoslavlikning qaror topishi patriarxal urug'chilik tuzumining yemirilishi va Kiyev Rusining davlat sifatidagi mavqeining mustahkamlanishiga xizmat qilgani, keyinchalik ham pravoslav cherkovi markazlashgan Rossiya davlatining shakllanishida faol ahamiyat kasb etgani ilmiy adabiyotlarda keng yoritilgan. "SHarqiy yevropa pravoslavligi bo'lmagan davrda,— deb yozadi I.M. Dyakonov,— ruskalarda etnik o'z-o'zini anglash ham yo'q edi, faqat tiverliklar, duleblar, polyanlar, drevlyanlar, krivichlar, ilmen slavyanlari bor edi. Ruslarning o'zligini anglashi pravoslav sifatida o'zlikni anglash tarzida yuzaga keldi"².

Demak, din va etnosning o'zaro aloqadorligi etnos (millat) va dinning parallel rivojlanishida, diniy va milliy o'ziga xoslikning ayanlashtirilishida yaqqol namoyon bo'ladi³.

¹ Qarang: *Karimov I.A.* O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barq-arorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. // *Karimov I.A.* Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lidan. 6-jild. — T.: «O'zbekiston», 1998. - 52-53 b.

² Qarang: *Dyakonov.I.M.* Obshestvennsh i gosudarstvennsh stroy drevnogo dvureche SHumer. - M.: 1995. - S. 50-56.

³ Qarang: *Xujamuradov I.R.* Problem! formirovaniya natsionalnogo (etnichesko-go) samosoznaniya uzbekskogo

Bunday xulosani sotsiologik tadqiqotlar natijalari ham tasdiqlaydi. "Ijtimoiy fikr" jamoatchilik fikrini o'rganish markazi tomonidan "Aholining diniy e'tiqodi darajasi" mavzuida o'tkazilgan va turli millat vakillari ishtirok etgan sotsiologik tadqiqotlar natijalariga ko'ra, unda qatnashganlarning 99 foizi xudoga ishonishini bildirgan. Vaholanki, bu ko'rsatkich 2001 yilda 98,1, 1998-2000 yil-larda 95 foizga teng bo'lgan. SHu bilan birga bu jarayonlarni ham mutlaqlashtirish kerak emasga o'xshaydi. CHunki, respondentlarning 85,7 foizi o'zini "qat'iy diniy talablarga rioya qiladigan inson" deb hisoblamasligini ta'kidlagan⁴.

Milliylik va diniylik murakkab o'zaro bog'liqlikda ekanini fuqarolarning birinchi navbatda o'zlarini kim deb his qilishlari to'g'risidagi savolga bergan javoblaridan ham ko'rish mumkin. Xususan, so'rovda qatnashganlarning 60,2 (1998 yilda — 64,8, 1999 yilda — 61,5, 2000 yilda — 52,5, 2001 yilda — 56,0) foizi avvalo o'zlarini musulmon deb his qilishlarini ta'kidlaganlar. Ayni paytda, ularning 19,3 (1998 yilda -15,8, 1999 yilda — 19,8, 2000 yilda - 18,4, 2001 yilda -19,3) foizi bu tushunchalarni ajralmas deb hisoblaydi⁵.

Ma'lumki, din o'zining integrativ funksiyasining kuchliligi bilan ajralib turadi. Dinlarning polietnik xarakterga egaligi sharoitida esa bu nihoyatda katga miqyosda namoyon bo'ladi.

Ijtimoiy-iqqisodiy, siyosiy va madaniy jarayonlarning globallashuvi esa uning chuqurlashuvini ham keltirib chiqarmoqda. S. Xantington fikricha, bu kishilarning o'zligini anglashining muayyan joy bilan emas, balki yuqoriroq — diniy birliklar darajasi bilan bog'liq holda kechayotganida yaqqol ko'rinmoqda⁶.

Qayd etilgan holat din va millatlararo munosabatlar masalasi bilan bog'liq bo'lgan va muhim hayotiy-amaliy ahamiyatga ega xulosani chiqa-rish imkonini beradi. Polietnik xarakterga egaligi tufayli, muayyan dinga xolis yoki noxolis munosabat dinga e'tiqod

naroda i vliyaniye na nego Islama. Avtoref. diss. doktora filos. nauk. - T.: 1994. - S.21-22.

⁴ Qarang: Analiticheskiy doklad po rezultatam sotsiologicheskogo issledovaniya: "Uroven religioznosti naseleniya". - S. 3, 4

⁵ Qarang: Ukaz istochnik. - S. 4

⁶ Qarang: S. Xantington Stolknoveniye sivilizatsiy? // «Polis», 1994. №1. — S.35

qiluvchi etnoslar tomonidan tegishli anglanishi va baholanishi hamda millatlar, hatto davlatlararo munosabatlarga ijobiy yoki salbiy ta'sir qilishi mumkin. Mazkur misollarning o'zi ham din va millat kabi ijtimoiy hodisa-larning uzviy bog'liqligidan dalolat beradi. Bu holat konfessiyalararo munosabatlarni millatlararo munosabatlarning xarakteriga kuchli ta'sir qilishi mumkin bo'lgan omillardan biri sifatida qarash lozimligini ko'rsatadi. Ammo, afsuski, bunday munosabatlar hamma vaqg ham bir maromda kechmagan. Zero, muayyan hollarda boshqa e'tiqod shakllariga nisbatan salbiy munosabatning shakllanishi, past nazar bilan qaralishi, uning tarafdorlari, sohiblarining siquv va quvg'in ostiga olinishi sodir bo'lgan. Bunday qarashlar va unga asoslangan harakatlar barcha dinlar — buddaviylik, islom, xristianlik (katoliklik, protestantlik, pravoslavlik) doirasida ham birday uchratish mumkin bo'lganidek, tarixning hamma davrlarida ham u ko'plab fojialarni keltirib chiqargan.

O'rta asrlarda cherkov homiyliги ostida amalga oshirilgan va qariyb 200 yil davom etgan salb yurishlari ham buning yorqin misolidir.

Angliyalik soldatlarni garovga olish va o'ldirish yo'li bilan terrorchilik harakatlarini sodir etgan "Irgun svey leumi" tashkiloti a'zolari esa iudaizm shiorlari ostida faoliyat olib borgan edilar⁷.

Bunday mudhish hodisalar, afsuski, islom bayrog'i ostida ham amalga oshirilgan. Masalan, vahhobiylar 1802 yilda Karbologa kelib Imom Husayn qabri ustiga oltindan qurilgan maqbarani buzib, talab ketishgan. Bu ham yetmaganidek bir kun davomida bir necha ming odam qatl etilgan... Oradan bir yil o'tar-o'tmas bunday xunrezlik yana takrorlangan. Bu safar ular Imom Hasan maqbarasini talaganlar va yana minglab odamlarni so'yib, qatl qilganlar⁸.

Qisqa vaqt davomida Afg'onistonda hukmronlik qilgan "Tolibon" harakati vakillarining Bomiyon viloyatida joylashgan, tog'li qoyaga o'yib ishlangan, eng qadimiy va eng yiriklaridan bo'lgan Budda haykali-ning portlatib yuborishi ham diniy ekstremizmning jirkanch qiyofasini yana bir bor yaqqol namoyon qildi.

⁷ Qarang: *Arxiyepiskop Vladimir. ...A druzey iskat na Vostoke.* - T.: 2002. — S.4

⁸ Qarang: *Abdullajonov O. Diniy aqidaparastlikning kelib chiqishi, mohiyati va Uzbekistonga kirib kelishi.* — T.: «Akademiya», 2000. - 40-41 b.

YUqoridagi dalillar ekstremizmni faqat islom dini bilan bog'lash o'rinsizligini yana bir bor isbotlaydi. CHunki ekstremizm millat ham, din ham tanlamaydi. Buni boshqa konfessiyalarning atoqli vakillari ham ta'kidlaydilar. "Terrorizmni faqat islomga xos hodisa deb bilish mutlaqo be'manilikdir, deb yozadi Rus pravoslav cherkovi Toshkent va O'rta Osiye yeparxiyasi arxiyepiskopi Vladimir. — Siyosiy kurashning bunday jinoyatkorona usuli juda qadimdan ma'lum: qadimgi rimlik respublikachilar tomonidan imperator YUliy sezarning o'ldirilishi teraktning antik davrga xos misolidir"⁹. SHunday bo'lsada, konfessiyalararo va millatlararo munosabatlarning o'zaro aloqasi doirasida islom va bag'rikenglik, islom va ekstre mizm masalasi alohida e'tiborni talab qiladi. Bu titul millat bo'lgan o'zbeklar va, umuman olganda, aholining mutlaqko'pchiligi islom diniga e'tiqod qilgan sharoitda islomning millatlararo munosabatlar xarakteriga ustun darajada ta'sir o'tkazish imkoniyati bilan belgilanadi.

Islom diniga (mazhablar o'rtasidagi farqlarni inobatga olmaganda ham) ko'plab mamlakatlar aholisi e'tiqod qilsalar-da, ularning o'ziga xos, ayricha siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlar bo'lgani uchun ham islom olami yaxlit, monolit birlikni tashkil etmaydi. Aynan manfaatlar xilma-xilligi asos e'tibori bilan Qur'oni karimga tayanadigan, ammo undagi qoidalar, ko'rsatmalar, qadriyatlarni o'z maqsad-laridan kelib chiqqan holda talqin qiladigan mafkuralar turfa xilligini keltirib chiqarmoqda. Bugungi kunda bunday mafkuralar sahni-da konstruktiv hamkorlik tarafdori bo'lgan mo'tadil diniy oqimlardan tortib, o'z maqsadlariga erishish yo'lida hech qanday vosita va usullardan tap tortmaydigan o'ta radikal oqimlargacha faoliyat olib bormoqda. CHunonchi, o'rta asrlarda mavjud bo'lgan musulmon xalifaligini tiklashni orzu qilayotgan, islom dinini siyosiy lashtirish, yagona mafkuraviy makon barpo qilish yo'li bilan hokimiyatni qo'lga kiritishni maqsad qilib qo'ygan kuchlar ham bor.

Bundan qariyb o'n bir asr oldin ilm va ma'rifat, haqiqat va adolat hukmron bo'ladigan fozil shaharni orzu qilgan Forobiy uning ziddi bo'lgan shaharlar, jumladan, jaholat shahri haqida ham fikr yuritib, aholilarining diniy e'tiqodlari xato dunyoqarashlarga asos-langani shaharlarni jaholatdagi shaharlar deymiz. Bunday shahar aholisining Allohtaolo, u yaratgan xilqatlar, dinga doir tasavvurlari haqiqatga shunchalik

⁹ *Arxiyepiskop Vladimir. ... A druzey iskat na Vostoke. — T.: 2000. - S.4*

zidki, bular halol yashash uchun asos bo'lmaydi. Ular jaho-latli va tuban maqsadlariga erishishda hech kim to'sqinlik qilmasligi uchun soxta donolik va aldov yo'lini tutadilar¹⁰, — deb yozgan edi.

Bugun o'zlarini "islom uchun kurashuvchi", «sof» musulmon qilib ko'rsatayotgan kimsalar aslida Forobiy nazarda tutgan ana shu jaholat shahri fuqarolaridir.

Ayni paytda, yana bir holatni qayd etish lozim. "Islom e'tiqodi-ning demokratikligi shundaki, hech qanday test va sinovlar bilan insonni kofir yoki haqiqiylarga ajratish mumkin emas"¹¹. Prezidenti-miz o'rinli ta'kidlaganlaridek buni belgilash huquqi hech kimga berilmagani to'g'risida Qur'ondan o'nlab oyat va suralarni keltirish mumkin.

Shunday ekan, o'zlarini inson huquqyaari himoyachisi qilib ko'rsatuvchi ba'zi tashkilotlarning jamiyatda beqarorlik, ijtimoiy parokandalik keltirib chiqarishga urinayotgan ayrim harakatlar faoliyati taqiqlanishini e'tiqod erkinligi va demokratiyani bo'g'ish deb baholashlari asossizligini ta'kidlash zarur.

Demokratiya mavhum narsa emas. Ijtimoiy hayot, jarayonlarning muayyan sohasi, yo'nalishlari bilan bog'liq holda olib qaralganda u hamisha aniq mazmun va shaklu shamoyil kasb etadi.

Din, diniy qarashlar va tashkilotlar hamda demokratiyaning munosabati to'g'risida mulohaza yuritganda esa, eng avvalo dinning davlatdan ajratilishining o'zi demokratiyaning eng yorqin namunasi ekanini yoddan chiqarmaslik zarur. Bunday yondashuv chuqur mazmunga ega. Zero, shunday paytdagina ulkan kuch-qudratga ega bo'lgan davlat organlarining diniy tashkilotlar va birlashmalar faoliyatiga aralashishiga chek qo'yiladi, ularning qonun oldidagi tengligi ta'minlanadi. Davlat vijdon erkinligi, har bir insonning xoqlagan dinga e'tiqod qilish yoki hech qanday dinga e'tiqod qilmasligini ta'minlashning kafolati sifatida chiqadi. SHunday tamoyilni demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini qurishni maqsad qilib qo'ygan

¹⁰ Qarang: *Forobiy Abu Nasr*. Fozil odamlar shahri. — T.: «Abdulla Qodiriy nomi-dagi xalq merosi nashriyoti», 1993. - 163, 169 b.

¹¹ *Karimov I.A.* Biz o'z hududimizni xalqaro me'yorlar doirasida bizda majjud barcha usullar bilan himoya qilamiz. // «Xalq so'zi», 20 oktyabr, 1999.

respublikamiz o'z Konstitutsiyasining 29, 31 va 61- moddalarida mustahkamlab qo'ygan.

Ammo yuqoridagi qoida, ustuvor demokratik tamoyildan, birinchidan, dindorlar, diniy tashkilotlar ham davlat ishlariga aralashishlari, siyosiy faoliyat bilan shug'ullanishlari va, ikkinchidan, har kim fikrlash, so'z, e'tiqod erkinligiga ega ekan, bu erkinlik jamiyat asoslarini yemirishga, konstitutsiyaviy tuzumni barbod qilishga qaratilishi mumkin emasligi haqidagi aks xulosa ham kelib chiqadi. Har qanday demokratiya **huquq va erkinliklar** bilan bir qatorda, jamiyat oldidagi muayyan **majburiyat va ma'suliyatni** ham taqozo etishini inobatga olsak, bunday talab o'rinli ekaniga shubha qilmasa ham bo'ladi.

Demokratik jamiyatda xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbai sifatida chiqqani uchun ham u xalq manfaatlarini ko'zlab amalga oshiriladi. SHunday ekan, har qanday davlat o'z mustaqilligi va xavfsizligini, jamiyatdagi barqarorlik, tenglik, qamkorlikni ta'minlashi, buning uchun zaruriy huquqiy asoslarni o'z konstitutsiyasida belgilab qo'yishi hamda ularga qat'iy rioya etilishini nazorat qilishi tabiiy hol. Ta'bir joiz bo'lsa, bu demokratiyaning muhim unsuri ham. Mamlakatimiz Konstitutsiyasining 57- moddasida ana shunday huquqiy asoslar o'z ifodasini topgan. Keng qamrovli va chuqur mazmunga ega bo'lgan ushbu moddada shunday deyiladi: "Konstitutsiyaviy tuzumni zo'rlik bilan o'zgartirishni maqsad qilib qo'yuvchi, respublikaning suvereniteti, yaxlitligi va xavfsizligiga, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi chiquvchi, urushni, ijtimoiy, milliy, irqiy va diniy adovatni targ'ib qiluvchi, xalqning sog'ligi va ma'naviyatiga tajovuz qiluvchi, shuningdek harbiylashtirilgan birlashmalarning, milliy va diniy ruhdagi siyosiy partiyalarning hamda jamoat birlashmalarining tuzilishi va faoliyati taqiqlanadi.

Maxfiy jamiyatlar va uyushmalar tuzish taqiqlanadi"¹².

Ana shu konstitutsiyaviy qoidalar, yuqorida bayon etilgan va Asosiy Qonunimizda mustahkamlab qo'yilgan demokratik tamoyillarning mohiyatidan kelib chiqilsa, "Hizb at-tahrir al-islomiy" kabi harakatlar faoliyatining taqiqlanishi o'rinli ekaniga ishonch

¹² O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. - T.: «O'zbekiston», 19⁹². -19-20 b.

hosil qilish mumkin.

Zero, birinchidan, "Hizbut tahrir" diniy - siyosiy tashkilotdir. Ikkinchidan, u o'z tuzilishiga ko'ra kichik-kichik yashirin guruxlardan tashkil topgan. Uchinchidan, davlatni faqat islomiy qoidalar asosida boshqarish zarur degan nuqgai nazarda qatgiqturadi. Va, nihoyat, to'rtinchidan, butun dunyo miqyosida xalifalikni tiklashni o'zining bosh maqsadi deb biladi.

Ko'rinibturibdiki, "Hizbuttahrir" faoliyati Konstitutsiyamizning 57-moddasida belgilab qo'yilgan tamoyillarga mutlaqo va butunlay ziddir.

"Hizbut tahrir" faoliyatiga xos yuqoridagi to'rt xususiyatda yaqqol ko'rinmaydigan, botiniy bo'lgan boshqa jihatlar ham bor.

"Hizbut tahrir" faqat islomiy qoidalar ustuvorligini qaror toptirish uchun kurash olib boradi. Demak, u dinlararo adovatni targ'ib qiladi, dini, e'tiqodidan qat'i nazar, fuqarolarning qonun oldidagi tengligi tamoyilni rad etadi, millatlararo totuvlikka rahna soladi deb xulosa chiqarish mumkin. SHu bilan birga, xalifalikni tuzishni maqsad qilib qo'yar ekan, u o'z mohiyatiga ko'ra respublikamiz suvereniteti, hududiy yaxlitligiga tajovuz qilishini ham yoddan chi-qarmaslik zarur.

Diniy ekstremistik tashkilotlarning haqiqiy mohiyati ijtimoiy fikrda ham o'z ifodasini topmoqda. Xususan, respondentlarning 84,1% hizbut tahrirchilar faoliyati mamlakat tinchligi va xavfsizligi uchun tahdid ekanini ta'kidlaganlar. So'rovda qatnashganlar diniy ekstremizm ularda "terrorizm, diversiya" (47,6%), "fundamentalizm"(29,6%), "qurol-yarog'" (26,0%), "diniy fanatizm" (22,0%), "narkotiklar" (20,6%), "fuqarolar urushi" (19,8%) kabi hodisalar bilan bog'liqpigi haqidagi tasavvurlarni uyg'otishini qayd qilganlar. Bunday natijalar bugungi kunda aholida diniy ekstremistik harakatlarning haqiqiy mohiyati to'g'risida muayyan tasavvur hosil bo'lganini ko'rsatadi¹³.

SHunday bo'lsada, tadqiqotlar kishilarning diniy bilimlari past darajada qopayotganini ko'rsatmokda. Xususan, yuqorida qayd etilgan "Axolining diniy e'tiqodi darajasi" mavzuida

¹³ Qarang: Analiticheskiy doklad po rezultatam sotsiologicheskogo issledovaniya: "Uroisp rsligmoznosti naseleniya". - T.: 2000. - S. 16

o'tkazilgan so'rovda qatnashganlarning bor yo'g'i 14,7% o'zining bu sohadagi bilimini "etarli" deb baholagani, 71,8% esa islomning ayrim talablarinigina bilishini, 13,5% esa umuman hech narsa bilmasligini tan olgan. Ayni paytda, so'rovda qat-nashganlarning 60,8 (2000 yilda — 40,9, 2001 yilda 43,8) foizi islomiy bilimlarini oshirishga xohishi borligini bildirgan.

Mazkur dalillarning o'zi ham diniy-ma'rifiy ta'lim masalasiga e'tibor berish zarurligini ko'rsatadi. Zero, birinchidan, bunday ehtiyojlar qondirilmas ekan, uni to'ldirishga harakat qiluvchi kuchlar topiladi. Ikkinchidan, mustaqil yo'l bilan diniy bilimlarini oshirishga intilish hamma vaqt ham ijobiy natijaga olib kelmasligini inobatga oladigan bo'lsak, masalaning dolzarbligi yanada oydinlashadi.

YUqorida qayd etilgan va xilma-xil ko'rinishlarda chiqadigan va boshqacha e'tiqod sohiblariga nisbatan agressivligi bilan ajralib turadigan qarashlar va harakatlar bilan bir qatorda asrlar davomida insoniyat o'zida o'zgacha e'tiqod vakillariga nisbatan ham e'tibor bilan munosabatda bo'lish, ularning diniy his-tuyg'ulariga nisbatan hurmat hissini namoyon qilishdek xislatlarni ham shayushantirdi. Boshqacha aytganda, diniy bag'rikenglik, zamonaviy tilda ifodalaganda, tolerantlikning ham ildizlari uzoq moziyga borib taqaladi. Diniy bag'rikenglik hamisha diniy zamindagi adovatga qarshi o'ziga xos qalqon vazifasini o'tagan. U turli e'tiqodparning bir zamon va makonda birgalikda mavjud bo'lishiga, o'zaro hamkorlik va hamjihatlikning shakllanishiga yo'l ochgan. Bu esa o'z navbatida yurttinchlighi va taraqqiyotiga, umuminsoniy madaniyat va ma'naviyat rivojiga xizmat qilgan.

Xalqimizga xos bag'rikenglik ham o'zining qadimiy ildizlariga ega. Tarixan Markaziy Osiyo turli madaniyatlarning o'zaro to'qnashuvi, ta'siri va boyishiga imkoniyat yaratgan nuk^alardan hisoblanadi. SHarqni G'arb bilan birlashtirib turgan Buyuk ipak yo'lining Markaziy Osiyodan o'tgani buning uchun qulay sharoit yaratgan, albatta.

Madaniy aloqalar, o'zarota'sirlashuvning intensivtarzda^ayniqsa, Xitoy, Hindiston, Yaqin va O'rta Sharq, Kichik Osiyo, O'rta yer dengizi mintaqasi bilan amalga oshirilganini ta'kidlash joiz. Antik davrning Strabon, Gerodot kabi olimlari asarlarida mintaqamiz, jumladan, bizning'

ajdodlarimiz tarixi, tili, madaniyati, urf-odatlari haqida ko'p yozilgani ham qadim ugmishda Markaziy Osiyo nafaqat SHarq, balki G'arb bilan ham chuqur aloqalar o'rnatganidan dalolat beradi.

Bugungi ma'naviy Uyg'onishimizning manbai bo'lib xizmat qilayotgan o'zbekona bag'rikenglik, xalqimizga xos etnik, madaniy va diniy sabr-bardoshlilikning ildizlari ana shu davrlarga borib taqaladi. Buni bo-shqa dinlar vakillari ham e'tirof etishadi. Xususan, yahudiylar jamoasining vakillaridan biri R. Bensman shu haqda to'xtalar ekan, Buxoroda dastlabki sinagoga VIII asrdayoq qurilgani, boshqa din vakillari bilan bir qatorda o'z dinlariga erkin e'tiqod qilish uchun o'sha paytdayoq yetar-li shart-sharoit yaratib berilganini ta'kidlab «O'rta asr yevropasi va Vizantiya imperiyasida quvg'in qilingan yahudiylik Markaziy Osiyoda boshqa dinlar bilan bir xil huquqqa ega edi»¹⁴, deb yozadi.

O'zga xalqlar tili, urf-odatlari va an'analariga chuqur hurmat, ularning o'zligini sakdab qolish, madaniy-ma'rifiy ehtiyojlarini ro'yobga chiqarishga imkoniyat yaratish va har tomonlama yordam ko'rsatish o'zbekona bag'rikenglikning yorqin xususiyatlaridandir. Aynan mana shunday bag'rikenglik, sabr-bardoshlilik madaniyatimizning benazir namunalarini saqlab qolish, asrlar sinovidan olib o'tish, kamol toptirish hamda o'zga madaniyatlarning ahamiyatli natijalari bilan boyitishga sharoit yaratdi. O'z navbatida bunday munosabat xalqimizga xos bo'lgan xulq-odob me'yorlari, ma'naviy qadriyatlarning qo'shni xalqpar tomonidan qabul qilinishiga yo'l ochgani ham tarixiy haqiqatdir.

Vijdon erkinligi, har bir insonning e'tiqod erkinligi huquqini ta'minlash, diniy tolerantlik masalalari jamiyat rivojlanishining bugungi bosqichida o'ziga xos ahamiyat kasb etmoqsa. CHunki, bugungi kunda yurtimizdadiniy qadriyatlarning tiklanishi sodir bo'lmoqda. Bujarayon nafaqat islom dinida, balki boshqa konfessiyalar doirasida ham kechmoqda. Bunda, bizningcha, jamiyatimizda kechayotgan o'zgarishlarning muhim xarakterli belgisi o'zining ifodasini topgan. Chunki, bunday uyg'onish va yangilanish jarayonisiz xalqimiz, butun jamiyatimizning to'la ma'noda-gi ma'naviy uyg'onishi haqida

¹⁴ *Bensman R. Deyatelnost religioznych organizatsiy po ukrepleniyu mejreligioznogo soglasiya. // «Mejreligioznoye soglasiye - vajnoye usloviye uglubleniya demokraticheskix protsessov v stranax sentralnoy Azii (na primere Respubliki Uzbekistan)». Material! mejdunarodnoy konferensii. — T.: 2002. - S. 125-126*

gapirish mumkin bo'lmagan bo'lur edi.

Aynan mana shunday uyg'onish jarayoni har bir kishining e'tiqod va vijdon erkinligini, fuqarolarning diniy mansubligidan qat'i nazar tengligini hamda diniy bag'rikenglikni ta'minlashga alohida e'tibor bilan qarshni taqazo yetdt.

Zero, bir tomondan, bunday uyg'onish jarayonidan e'tiqodidan qat'i nazar, barcha kishilar manfaati uchun foydalanish lozim. Boshqa tomondan, dinlarning butun quvvati va yo'naltiruvchilik qudratini kishilarni birlashtirishga, shu jumladan, mil-latlararo totuvlikni yanada mustahkamlashga safarbar etish zarur.

Unga erishish uchun esa bizda barcha sharoitlar mavjud. "Asrlar davomida yirik shaharlarimizda masjid, cherkov va sinagogalarning mavjud bo'lishi, turli millat va dinga mansub qavmlarning o'z diniy amallarini erkin ado etib kelayotgani buning tasdig'idir. Tariximizning eng murakkab, og'ir davrlarida ham ular o'rtasida diniy asosda mojarolar bo'lmagani xalqimizning diniy bag'rikenglik borasida kat-ta tajriba to'plaganidan dalolat beradi"¹⁵.

Buni konkret tarixiy dalillar ham tasdiqlaydi. **XIX** asrda Rossiya-ning markaziy mintaqalaridan majburlab ko'chirilgan dehqonlar nochor ahvolga tushib qolganda musulmon aholi ularga har tomonlama yordam ko'rsatgan. O'shadavr voqealarini ko'rgan iyeromonax Xariton "mahalliy aholi nochor ko'chmanchilarga rahmdillik bilan munosabatda bo'ldilar, busiz ularning ko'pchiligi ochlik va muhtojlikdan o'lib ketgan bo'lar edilar"¹⁶, — deb guvoqyaik bergan.

Bunday misollarni tariximizning keyingi davrlaridan ham topish mumkin. Ma'lumki, bolsheviklarning ommaviy qatag'onlaridan ruhoniylar ham chetda qolmadi. Xususan, arxiyepiskop Vladimir ta'kidicha, birgina Toshkent shahrida 3 mingdan ortiq ruhoniylar va monaxlar surgunda bo'lishgan. Ularga yordam ko'rsatganlari uchun o'zlari ham qatag'on qilinishini bilgan holda mahalliy aholi ularga iloji boricha ko'maklashishga harakat qilgan. O'z hayotlarini xavf ostiga qo'yib bo'lsa ham qatag'on qilinayotgan ruhoniylarni yashirishgan. Masalan, Toshkentdagi Svyato Nikolay ayollar

¹⁵ Milliy istiklol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. — T.: «O'zbekiston», 2000. — 61 b.

¹⁶ *Arxiyepiskop Vladimir. ... A druzey iskat na Vostoke.* - T.: 2000. - S.43

monastirining so'nggi boshlig'i, otishga hukm qilib qo'yilgan igumenya Lidiya (Nagornova)ning qamoqqa olinishidan oldin qochib ketishiga Jo'ra ismli o'zbek yigiti ko'maklashgan.

Mazkur hayotiy misollar ham, bizda ko'p asrlik diniy bag'rikenglik tajribasi mavjudligini yana bir bor isbotlaydi.

Mustaqillik sharofati tufayli ijtimoiy hayotning barcha sohalari qatori dinga, dindorlarga bo'lgan munosabatda ham tub o'zgarishlarga yo'l ochildi. Bunday deyishimiz uchun barcha asoslar bor. Birinchidan, bugungi kunda ulamolarning ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishlari uchun barcha imkoniyatlar mavjud. Ikkinchidan, yaqin o'tmishda diniy qadriyatlarni bilish va o'rganishga bo'lgan qiziqish, intilish salbiy baholanar edi. Bundan fark^li o'laroq hozirda diniy urf-odatlar, an'-analar, qadriyatlarni sak^ab qolish va rivojlantirish uchun yetarli shart-sharoitlar yaratib berildi.

Buni fuqarolarimiz e'tiqod qiladigan noislomiy konfessiyalar hayotida sodir bo'layotgan ijobiy o'zgarishlarda ham ko'rishimiz mumkin. Din ishlari bo'yicha qo'mitaning 2004 yilning 1 fevraliga bo'lgan ma'-lumotlariga ko'ra respublikamiz bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan 2153 ta diniy tashkilotdan 172 tasi xristian cherkovi, 7 tasi yahudiylar, 6 tasi bahoiy jamoasi, 2 tasi Krishnani anglash jamiyati va 1 tasi buddaviylikka mansubligi ham shuning isbotidir. Ularning eminerkin faoliyat ko'rsatishi uchun barcha sharoitlar yaratilmoqsa. Masalan, istiqpop sharofati tufayli tarixda birinchi marta Toshkent va O'rta Osiyo yeparxiyasi Boshqarmasi qoshida Toshkent seminariyasi, Samarqandda esa protestantlar seminariyasi faoliyat ko'rsata boshladi.

Noislomiy konfessiyaga mansub fuqarolarimiz xorijga chiquvchi dindorlar uchun yaratilgan barcha imtiyozlardan to'liq foydalanmoqdalar. A.Saidovning ta'kidlashicha, har yili 120 dan ortiq noislomiy konfessiya vakillari Isroil, Gretsiya va Rossiyadagi muqaddas joylarga ziyoratga borib kelmoqsalar¹⁷.

Mustaqillik tufayli diniy qadriyatlar va milliy o'zlikni ang-lashni tiklash borasidagi ishlar mamlakatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoniga ko'ra 1903 yilda qurilgan «Svyataya

¹⁷ Qarang: *Saidov A.X. Religioznaya tolerantnost i svetskoye gosudarstvo v Uzbeki-stane.* - T.: «Natsionalnj sentr Respubliki Uzbekistan po pravam cheloveka», 2002. - S.57

Bogoroditsa» ibodatxonasining Arman apostol cherkoviga, o'z vaqtida faoliyati to'xtatib qo'yilgan yevangel-lyuteran cherkovi Kirxasining respublikamizda istiqomat qiluvchi nemislarning diniy eh^iyojlarini qondirish maqsadida "Vidergeburt" nemis madaniyat markaziga maqsadga muvofiq tarzda foydalanish uchun qaytarib berilgani va 1996 yilning dekabrda ushbu kon-fessiyaning yurtimizda faoliyat ko'rsata boshlaganining 100 yilligi nishonlangani yuqoridagi fikrimizning dalili bo'la oladi.

Respublikamiz Prezidentining Rus pravoslav cherkovining birinchi darajali "Muruvvatli iymoni but Moskvaning knyazi Daniil" va xalqaro «Andrey Pervozvannsh» fondining «Dialog sivilizatsiy» ordenlari bilan mukofotlanishi esa mamlakatimizda fuqarolarning vijdon erkinligi bilan bog'liq huquqlarini ro'yobga chiqarish uchun barcha sharoitlarni yaratish, tinchlik, barqarorlik, turli millat, din va mazhabdagi kishilarning o'zaro totuvligini ta'minlash yo'lida olib borilayotgan ishlarning yuksak e'tirofi bo'ldi.

Diniy bag'rikenglikning umuman ijtimoiy barqarorlik, xususan, millatlararo totuvlikni ta'minlashdagi o'rnini hisobga olgan holda, O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»gi qonunning ahamiyatiga to'xtalish maqsadga muvofiq. Unda O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining dinga munosabatidan qat'i nazar qonun oldida tengligi haqidagi konstitusiyaviy tamoyil ijodiy rivojlantirilgan. Xususan, qonunda fuqarolarning dinga munosabatiga qarab ularning huquqlarini cheklash yoki imtiyozlar belgilash, ularning e'tiqodi bilan bog'liq his tuyg'ularini haqoratlash, turli konfessiyalar o'rtasida adovatni avj oldirishga qaratilgan xatti-harakatlarga yo'l qo'yilmasligining mustahkamlab qo'yilgani muhim ahamiyatga egaligini ta'kidlash zarur.¹⁸

Ko'p konfessiyalilik sharoitida mazkur qoidaning ahamiyati nihoyatda yuqori bo'lib, u fuqarolarning milliy hissiyotlariga ham bevosita daxldordir. Chunki millatning kayfiyati uning e'tiqod erkinligining nechog'li adolatli ta'minlanganiga ham bog'liqdir. Konfessiyalar aro adovat esa oxir oqibatda millatlararo adovatga yo'l ochishi mumkin.

Bugungi kunda e'tiqod erkinligi to'laqonli ta'minlangan, uning huquqiy asoslari

¹⁸ Qarang: O'zbekiston Respublikasining "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar tug'risidagi (yangi tahriri)" qonuni. - T.: «Adolat», 1998. -5-6 b.

yaratilgan, diniy konfessiyalar o'rtasidagi tinchlik va totuvlik qo'llab-quvvatlanayotgan bir sharoitda bir konfessiyadagi dindorlarni boshqasiga kiritishga qaratilgan xatti-harakatlar(proze-litizm), shuningdek har qanday missionerlik faoliyati man etilgan.

Bizda uzoq vaqt davomida turli konfessiyalar birgalikda mavjud bo'lib kelgan bo'lsada, tarixan missionerlik kuzatilmagan. Arxiyepiskop Vladimir XX asr boshida Rus pravoslav cherkovining Toshkentdagi yeparxiyasini boshqargan yepiskop Dmitriy (knyaz Abashidze) o'ziga xos statistika olib borganini va unda yarim asrdan ortiqroq vaqt davomi-da turli millatga mansub 14 kishi pravoslavlikni, 10 ta rus millatiga mansub fuqaro, shu jumladan, Gromov familiyali ruhoniy ham musulmonlikni qabul qilgani qayd etilganini ta'kidlaydi. Uning fikricha, oz sonli bunday e'tiqoddagi o'zgarishlar mazkur kishilarning shaxsiy intilishlari bilan bog'liqbo'lgani shubhasiz. E'tiqodni o'zgartirish bilan bog'liq faoliyat pravoslavlik va islomning ham maqsadlari doirasiga kirmagani uchun bunday holatlar bu ikki konfessiya o'rtasidagi munosabatlarga ta'sir ko'rsatmagan¹⁹.

Ammo bugungi kunda mutlaqo boshqa voqelik yuzaga keldi. SHu nuqtai nazardan qaraganda, qonunda yuqoridagi kabi taqiq nazarda tutilishining o'ziga yarasha asosi bor.

Ma'lumki, muayyan davrda yurtimizda nasroniylikning turli yo'nalishlariga mansub "Slovo Verm" cherkovi, Pastor Mun cherkovi birlashmasi kabi ayrim tashkilotlar turli millat va e'tiqodga mansub yoshlarni o'z ta'sirlariga tortish, o'zbek tilida diniy adabiyotlarni nashr etib tarqatish, turli da'vatlar bilan respublika tub aholisi orasida xristianlik ta'limotini yoyishga qaratilgan missionerlik harakatlarini olib borishga urindilar. Bunday tashkilotlarning no-qonuniy harakatlari qonunda belgilangan tartibda taqiqpandi.

Din millat ma'naviyatining uzviy qismi, milliy o'ziga xoslikni saqlab qolish va rivojlantirishning muhim omili hisoblanar ekan, missionerlikning man etilishi ko'p konfessiyalilik va ko'p millatlilik sharoitida fuqarolar orasida diniy asosda nizolar kelib chiqmasligini ta'minlaydigan, millatlaro totuvlikni yanada mustaqkamlashga xizmat

¹⁹ Qarang: *Arxiyepiskop Vladimir. ... A druzey iskat na Vostoke.* - T.: 2000. - S.38, 43.

qiladigan asosiy tamoyillardan biri sifatida chiqadi. Bu demokratik qadriyatlarga to'la mos keladi. Zero, demokratiya hamma narsa ruxsat etilgan degani emas, balki qonunning ustuvorligini, jamiyatning mavjud barqarorlikka tahdid soluvchi harakatlarning oldini olish uchun amaldagi me'yoriy hujjatlar doirasida barcha choratadbirlarni ko'rishini ham anglatadi.

Prozeletizmning taqiqlanishi va muayyan diniy-siyosiy harakatlar faoliyatining man etilishi haqida gap ketar ekan, u jamiyat manfaatlariga muvofiqkelishini, ijtimoiy barqarorlik va tinchlikni saqlab qolishga yo'naltirilganini ham unutmash kerak. Bu xalqaro huquqning umume'tirof etilgan qoidalariga ham mos keladi. Masalan, "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi"ning 29-moddasida "har bir inson o'z huquq va erkinliklarini ro'yobga chiqishida shunday cheklashlarga muhtalo bo'lishi mumkinligi, bular qonun tomonidan belgilab qo'yilishi hamda bunday muddao boshqalarning huquqlari va erkinliklarini zarur darajada tan olinishi va hurmat qilinishi" bilan bog'liq bo'lishi, shuningdek qanday shaklda bo'lmasin "huquq va erkinliklarning amalga oshirilishi Birlashgan Millatlar Tashkilotlari maqsadlari va pritsiplariga sira zid bo'lmasligi kerak"²⁰ ligi belgilab qo'yilgani fikrimizga dalil bo'la oladi.

"Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi qonunning yangi tahririni hayotga tatbiq etish natijasida diniy tashkilotlarning soni fuqarolarning real ehtiyojlaridan kelib chiqib belgilandi. Biz uchun yot va zararli bo'lgan diniy sektalar tarqalishining oldi olindi. SHu bilan birga, diniy adabiyotlarni chop etish va tarqatishni tartibga solish va qonuniy asosda nazorat qilinishini tashkil etish kabi masalalarning oqilona yechimini topish imkoniyatini berdi.

Qonun talablarini amalga oshirish jarayonida yuzaga kelgan ayrim jiddiy muammolar ham odilona hal etildi. Masalan, SH. Minovarov ta'kidicha, respublikada an'anaviy hisoblangan ba'zi diniy jamoalar, ayniqsa lyuteran cherkovlari jamoalari qonunda belgilanganidek, yuz kishilik tashabbuskor guruhni tashkil eta olmasliklari ma'lum bo'lib qolgan bir sharoitda ham maxsus hay'at qaroriga ko'ra, bu muammolar o'z yechimini topgan. Masalan, CHirchiqshahridagi yevangel

²⁰ Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi. // Inson huquqlari tug'risida xalqaro bill. — T.: «Adolat», 1992. — 176.

Lyuteranlar jamoasi 27 kishidan iborat bo'lgani holda ularga diniy tashkilot tuzishga va rasmiy ro'yxatdan o'tishga ruxsat berilgan²¹.

SHuningdek, qonunda ta'lim tizimiga diniy fanlarning joriy etilishiga yo'l qo'yilmasligi haqidagi qoidaning belgilab qo'yilgani ham ulkan amaliy-hayotiy ahamiyatga ega ekanini ta'kidlash zarur. Chunki, ko'p konfessiyalilik sharoitida muayyan dinni o'rganishga qaratilgan fanlarning kiritilishi boshqa konfessiya vakillari tomonidan o'zlarining vijdon erkinligi borasidagi haq-huquqlarining kamsitilishi sifatida ham qabul qilinishini unutmazlik lozim.

YUqoridagi dalillar ham dinning kishilar, shu jumladan, etnoslar hayotida muhim o'rin egallashini yana bir bor tasdiqlaydi. SHunday ekan, dinning birlashtiruvchilik va yo'naltiruvchilik quvvatini millatlararo totuvlikni yanada mustahkamlashga xizmat qiluvchi omilga aylantirish hayotiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonda xalqimiz to'plagan asriy tajribadan unumli foydalanish lozim. Bu tajriba zamonaviy realliklarni inobatga olgan holda rivojlantirilganda esa u mamlakatimizdagi ijtimoiy-siyosiy barqarorlik va millatlararo totuvlikni ta'minlash, barcha fuqarolarimizda yagona Vatan tuyg'usini shakllantirish, YUrt istiqloli va istiqboliga daxldorlik hissini kamol toptirishga xizmat qiluvchi omilga aylanadi.

²¹ *Minovarov SH. Din va davlat munosabatlari masalasi. // Hamjihatlik va bag'rikeng-lik — taraqqiyot omili. — T.: 2001. — 76-77 b.*